

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

# НАУЧНЫЙ ФОКУС



Последние  
изменения

Последние  
информация

Последние  
шаги

И НОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАБОЧИХ ОРГАНОВ ПРИ СБАЛАНСИРОВАННОМ ОБЕСПЕЧЕНИИ МЕХАНИЗМА ПЕРЕМЕЩЕНИЯ МАТЕРИАЛОВ НА ШВЕЙНЫХ МАШИН JUKI DDL-8100EH</b> Насриев А.Н Рахмонов И.М	<b>443</b>
<b>БУХОРО ФОЛЬКЛОРИ ТАРИХИЙ ГЕНЕЗИСИ ХУСУСИДА</b> Аvezov Собид Сафарович	<b>449</b>
<b>МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARDA KOGNITIV RIVOJLANISHNING XUSUSIYATLARI</b> N.N. Hamroyeva	<b>455</b>
<b>ONA TILI – МАКТАВГАЧА YOSHIDAGI BOLALAR TAFAKKURINI KENGAYTIRISH VOSITASI ISFATIDA</b> N.N.Hamroyeva	<b>460</b>
<b>ПЕРСПЕКТИВЫ ОБРАЗОВАНИЯ КАК ФАКТОРА РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА</b> Ниязова Ситора Давроновна	<b>466</b>
<b>TYPES OF COMPETENCE APPROACH IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS</b> Gullola Shavkatovna Rakhmonova	<b>473</b>
<b>ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ И ТРАДИЦИЙ</b> Рахмонова Гуллола Шавкатовна	<b>478</b>
<b>ЯЗЫК И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ЕГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ И ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b> Хамраева Нигора Абдуллаевна	<b>484</b>
<b>CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PRESCHOOL TEACHERS ANNOTATSIYA</b> U.T. Jumayev Tokhsanova Dilorom	<b>490</b>
<b>DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF PRE-SCHOOL CHILDREN WITH THE HELP OF ART THERAPY</b> U.T. Jumayev	<b>496</b>
<b>"ALPOMISH" DOSTONIDA SUNNAT TO'YI MAROSIMINING BADIY TALQINI</b> Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna	<b>501</b>
<b>"ALPOMISH" DOSTONINI O'RGANISH BOSQICHLARI, METODLARI HAMDA KUYLASH ETOSI</b> Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna	<b>506</b>
<b>МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARDA TOLERANTLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI</b> M.M.Nigmatova	<b>511</b>
<b>ИГРЫ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ПРОСТРАНСТВЕННЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА</b> Г.У.Умарова	<b>516</b>
<b>THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE COMPETENCE</b>	<b>522</b>

## ONA TILI – MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI KEN GAYTIRISH VOSITASI ISFATIDA

N.N.Hamroyeva

*Buxoro davlat universiteti dotsenti f.fff.d. (PhD)*

**Annotatsiya:** Bolaning imkon doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishishi, kattalarning savol va takliflariga javob berishi, o'z istak xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus ko'rsatib fikr bildirishga intilishi zamirida tabiiyki, ona tilining ahamiyati katta. Maqolada til, tafakkur, ona tilining maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishidagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** til, tafakkur, ona tili, bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar, kommunikativ qobiliyat, intellekt,

Bugungi kunda mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, bolalarga chuqur bilim berish maktabgacha ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga olib kirilmoqda. Maktabgacha ta'lim uzuksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim va tarbiyasi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Nutq o'stirish mashg'ulotlari maktabgacha ta'limda bolalarda ona tilini amaliy o'rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o'zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to'liq va to'g'ri ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish va nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so'z), unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi. Demak, mazkur mashg'ulotlar maktabgacha ta'limda nutq o'stirish vazifasini amalga oshiradi, bolalarda ifodali, aniq, lo'nda va obrazli so'zlashishni shakllantirish orqali ona tilini amaliy o'rgatadi, bolalarga ta'lim berib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqini o'stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so'zdan to'g'ri va kerakli o'rinda foydalanish, ya'ni chiroyli nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni hamda so'zlash odobini egallahni shakllantirishimiz kerak. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli hamda ta'sirchan bo'ladı, bola o'z nutqini tuzatib boradi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni sanaladi. Bola nutqining rivojlanishi umuman olganda shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. "...Tilni egallah jarayoni -bu faqat va shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar

tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir”, - degan edi mashhur olim K.D.Ushinskiy. Bola nutqining rivojlanishi, bir tomondan, tashqi ta’sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to’satdan yuz berishi, o’z-o’zidan harakatga kelishi bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holat hisoblanadi. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko’rib chiqishni yuzaga keltiradi.

Bola nutqining paydo bo’lishi va rivojlanishini o’rganish nafaqat psixologiya nuqtai nazaridan dolzarb, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Nutq-kommunikativ faoliyat tarkibidagi element, bu esa o’z navbatida bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rolni bajaradi. Aloqa va nutq orqali bola insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi xazinasidan ma’lumot olishni bilib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda og’zaki monologik nutqni rivojlantirish mактабда muvaffaqiyatli o’qitish uchun asos yarata oladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o’stirish mashg’ulotlari aynan shu jarayonlarni o’z ichiga oladi. nutq o’stirish mashg’ulotlari bolalarning mantiq va intellektini rivojlantirivchi asosiy vositalardan biri bo’lib hisoblanadi. Ammo maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelgunga qadar ham bolaning nutqi rivojlanadi va bu ota-onalar nazoratida bo’lishi lozim. Uch yashar bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar quyidagilardan iborat:

- bolaning imkon doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishishi, kattalarning savol va takliflariga javob berishi, o’z istak xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus ko’rsatib fikr bildirishga intilishini qo’llab-quvvatlash va unga quloq solish;

- tengdoshlari ishlariga qiziqishi, o’z taassurotlarini ular bilan o’rtoqlashishni istashi, o’yin harakatlari, ro’y berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishini rag’batlantirish va qo’llab-quvvatlash;

- bolaning lug’at zahirasini kishilar, o’simliklar, oziq-ovqatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari, o’yinchoqlar, narsa-buyum qismlari (ko’ylak yengi, cho’ntaklari va yoqasi; mashina eshigi va g’ildiragi kabilar) nomlari bilan boyitib borish, gapda so’zlarni bir-biriga to’g’ri bog’lashni (masalan, “Uyda ketdi” emas, “uyga ketdi”, “Kecha boraman” emas, “Bugun boraman”) o’rgatishga alohida e’tibor berish

- bolalarni unli va undosh tovushlarni to’g’ri talaffuz qilishga o’rgatish kerak.

Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti to’laqonli ijtimoiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, bolada muloqotga intilish, muloqot bo'yicha sheriklarining talabiga javob berish, ijtimoiy jihatdan o’zini tutishga moslashuvchanlik va xushmuomalalilik kabi xislatlarni tarbiyalamoq kerak. Kattalar (ota-onalar, pedagoglar) shuni tushunishlari lozimki, qator holatlarda salbiy muloqot tajribasi bolani biron-bir harakatga undamaydi, balki bolani insoniy munosabatlar olamida o’zini ko’rsatishdan “aynitadi”, himoya mexanizmlari – o’zi bilan insoniy olam o’rtasidagi “devor”, atrofdagi olamni “ko’rmaslik” paydo bo’lishiga olib kelishi mumkin bo’lgan holatdir. Bola odamlar

haqidagi savollarga javob bermaydi, suratlarda odamlarni “ko’rmaydi”, odamlar va hayvonlarni tasvirlovchi o’yinchoqlar bilan o’ynamay qo’yadi. Muloqotdan faol bosh tortayotgan bolaning dunyosiga qo’pol aralashish salbiy oqibatlarga va tajovuzga olib kelishi mumkin. Bolaga oilada va mакtabgacha ta’lim tashkilotida psixologik jihatdan qulay bo’lishi, uning kattalar va tengdoshlari o’rtasida emotsiyonal jihatdan qulay muhit yaratish, ular bilan o’zaro munosabatlardan quvonch va zavq olishlari uchun quyidagilar zarur bo’ladi:

- bolaga kattalar va tengdoshlarining turli emotsiyonal holatdagi hissiyotlari va kechinmalari olamini olib berish;
- bolaning boshqa bolalar bilan ishongan holatda muloqot qilishi uchun sharoit yaratish;
- quvonchli, qayg’uli, xotirjam, emotsiyonal holatini ko’rish va tushunishga bo’lgan intilishni rivojlantirish;
- o’zini tutib turish va g’azab, qo’rquv, jahl hislarini ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda namoyon qilishi rivojlantirish (boshqa bolani urmaslik, o’yinchoqni qo’ldan tortib olmaslik);
- jamiyatda qabul qilingan muloqot usullaridan foydalanish ko’nikmasini tarbiyalash: ochiq chehra bilan salomlashish va xayrlashish, o’z iltimos va takliflarini xushmuomalalik bilan bildirish; yordam bergenlik, mehmon qilganlik uchun, o’yinchoqni berib turganlik uchun minnatdorchilik izhor qilish; o’rtog’ining iltimosiga xushmuomalalilik bilan javob qaytarish; javobini xotirjamlik bilan tinglash; o’rtog’ini xafa qilmaydigan ohangda o’z noroziligini izhor qilish kabilarni kiritish mumkin.

Ma’lumki, bolaning nutqi til qonuniyatlariga to’g’ri amal qilish, kattalar nutqini idrok etish va o’zining ijodiy faolligi natijasida rivojlanib boradi. Shunday qilib, til va nutq maktabgacha katta yoshdagi bolaning psixologik rivojlanishi hamda dastavval xotirasi, fikrashi, idrok etishi, hissiyoti va ehtirosini ta’minlaydigan ikkita muhim vosita hisoblanadi. Ona tilidagi nutqni idrok etish qobiliyati bola nutq organlari muskullarini mashq qildirilishiga bog’liq, shuning uchun ham so’z, ibora va gaplarni talaffuz etishni takomillashtirish uchun nutq organlarini mashq qildirishga yetarli darajada e’tibor bermoq muhim sanaladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nizomiddinovna H. N. et al. KICHIK MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NING BADIY VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANIRISHNING PEDAGOGIK VOSITALARI //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 1318-1322.
2. Nizomiddinovna H. N., Gulnigor Y. MAK TABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI O’STIRISHDAGI DIDAKTIK O’YINLARDAN FOYDALANISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 122-126.

3. Nizomiddinovna H. N. et al. KATTA GURUH BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING AHAMIYATI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1437-1441.
4. Nizomiddinovna H. N. et al. KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQ VA INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1323-1327.
5. Низомиддиновна Х. Н. ФАТИК МУЛОҚОТ ТУРЛАРИ ВА ИЛТИФОТ ҲАҚИДА //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMUY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 27-31.
6. Hamroyeva N. Тилга антропоцентрик йўналишда ёндашув: фатика ва унинг хусусиятлари //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
7. Низомиддиновна Х. Н. ФАТИК МУЛОҚОТ ТУРЛАРИ ВА ИЛТИФОТ ҲАҚИДА //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMUY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 27-31
8. Kuldoshev R. et al. Mathematical statistical analysis of attainment levels of primary left handed students based on pearson's conformity criteria //E3S Web of Conferences. – 2023. – Т. 371. – С. 05069.
9. MA'NAVIY YARVA, O'RNI DBQE. "DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna, S. M. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA "ALPOMISH" DOSTONING O'RNI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMUY JURNALI, 2(2), 146-152.
10. Maxbuba Baxshilloyevna Sharipova, Gulshoda Fazliddin Qizi Ravshanova QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR // Scientific progress. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qahramonlik-dostonlarining-o-ziga-xosligi-milliy-ruh-va-an-analar> (дата обращения: 08.02.2023).
11. Sharipova M. YOSH AVLOD RUHIY VA MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA QAHRAMONLIK EPOSINING O'RNI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU, Maktabgacha ta'lif kafedrasasi o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021. – С. 116-117.
12. Sharipova M. B., Jalolova S. Z. Q. HOZIRGI MAISHIY TURMUSHDA O'Z O'RНИGA TO'LA EGA BO'LGAN MAROSIMLAR ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1114-1119.
13. Шарипова М.Б., Хусаинова З.Х. ВОСПЕВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ГЕРОИЧЕСКОМ ЭПОСЕ // Вестник науки и образования. 2021. №16-2 (119). URL: [https://cyberleninka.ru/article/n/vospevanie-natsionalnyh-duhovnyh-tsennostey-v-geroicheskem-epose](https://cyberleninka.ru/article/n/vospевание-национальных-духовных-ценностей-в-героическом-епосе) (дата обращения: 07.10.2022).
14. Nigmatova M. M., Erkinova D. E. ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR BILAN INKLYUZIV TA'LIM //PEDAGOGS журнали. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 157-157.

15. Nigmatova M. The Importance of Digital Games in Learning // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
16. Nigmatova M. Formation of Proper Nutrition in Children // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
17. Nigmatova M. O 'ZBEK AYOLLARINING IQTISODIY FAOLLIGI PASTLIGI VA SABABLARI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
18. Nigmatova M. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA STEM TEHNOLOGIYALARINI QO'LLASH VA UNING AVZALLIKLARI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
19. Nigmatova M. M. et al. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA ZAMONAVIY DUNYONING TARBIYASIGA TA'SIRI // Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1401-1407.
20. Nigmatova M. M., Jorayeva S. H. J. MAKTABGACHA TALIMDA STEM TA'LIM MODULI // Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1396-1400.
21. Nigmatova M. M., Erkinova D. E. MAKTABGACHA TALIM VA MAKTAB TA'LIMI HAMKORLIGI // Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1305-1309.
22. Nigmatova M. TA'LIM MUASSASALARI O 'RTASIDA UZVIYLIK TIZIMINI YARATISH MEXANIZMLARI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
23. Nigmatova M. BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA MAKTAB VA MTT HAMKORLIGI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
24. Jabborova S. The ways to promote healthy lifestyles in preschools // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 18. – №. 18.
25. Jabborova, S. (2022). MILLIY QADRIYATLAR ORQALI OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI». ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 18(18).
26. Zoirovna, Jabborova Saodat. "The ways to Promote Healthy Lifestyles in Preschools." EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 2.2 (2022): 263-266.
27. Jurakulovna, T. M., Shavkatovna, R. G., Xakimovna, G. D., & Zoirovna, J. S. (2022). Organization of the process of preschool education and upbringing based on a student-centered approach. International Journal of Early Childhood, 14(03), 2022.
28. Jabborova S. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalashning yo 'llari // Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1267-1271.
29. Jabborova S. Z. Forms, methods and ways of moral education of children in the family by means of national values // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 820-823.

- 
30. Рахмонов И. М. и др. Совершенствование механизма нитепрятягивателя швейных машин для образования качественной строчки //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3. – С. 26.